



XORIJ TAJRIBASI INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI HAMDA UNI MAMLAKATIMIZDA TADBIQ ETISH IMKONIYATLARI

Jamolov Jo`rabek Jamolovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
doktoranti. Telefon: 99 817 51 35

Annotasiya: Maqolada Investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadbiq etish imkoniyatlari bilan bog`liq jarayonlar tadqiq etilgan. Investitsiyalarni jalb qilish bo`yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri bo`lgan AQShning investitsion siyosati, investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish, tartibga solish va nazoratni yo`lga qo`yish yo`llari haqida va Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Hindiston, Braziliya kabi dunyoning eng yirik iqtisodiyotiga ega bo`ladigan davlatlar xorij tajribasi tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlar investitsion jozibadorligini mamlakatimizda tadbiq etish bo`yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya salohiyat, investitsion jozibadorlik, xorij tajribasi, raqobat afzalligi, investitsion samaradorlik, investitsion risk, bozor mexanizmi.

Аннотация: В статье рассмотрен зарубежный опыт привлечения и управления инвестициями, а также процессы, связанные с возможностями его внедрения в нашей стране. Анализируется инвестиционная политика США, одной из ведущих стран мира по привлечению инвестиций, о способах привлечения инвестиций и налаживания управления, регулирования и контроля за ними, а также зарубежный опыт таких стран, как Япония, Китай, Германия, Франция, Канада, Великобритания, Индия, Бразилия, которые будут иметь крупнейшие экономики мира. Сформулированы научные предложения и практические рекомендации по реализации в нашей стране инвестиционной привлекательности развитых стран.

Ключевые слова: привлечение инвестиций, инвестиционный потенциал, инвестиционная привлекательность, зарубежный опыт, конкурентное преимущество, эффективность инвестиций, инвестиционный риск, рыночный механизм.

Abstract: The article examines the foreign experience of attracting and managing investments, as well as the processes associated with the possibilities of its implementation in our country. The article analyzes the investment policy of the United States, one of the leading countries in the world in attracting investments, on ways to attract investments and establish management, regulation and control over them, as well as the foreign experience of countries such as Japan, China, Germany, France, Canada, Great Britain, India, Brazil, which will have the largest economies in the world. Scientific proposals and practical recommendations on the implementation of the investment attractiveness of developed countries in our country are formulated.

Key words: investment attraction, investment potential, investment attractiveness, foreign experience, competitive advantage, investment efficiency, investment risk, market mechanism.



Kirish.

Yurtimizda iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va bu jarayonda davlatning bosh islohotchi ekanligi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon investitsiya faoliyatini tartibga solish borasida ko'plab qarorlar qabul qilishni talab etadi. "O'zbekiston bilan ishlash istagini bildirgan xorijiy investorlar bilan mustahkam aloqa o'rnatib, loyihaning boshidan oxirigacha ularga yordam berish, oddiy qilib aytganda, ularni qo'lidan yetaklab "natijani ta'minlash kerak", - dedi Shavkat Mirziyoyev[1]. Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsion faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'ymasdan, ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va samarali o'zlashtirish ishlarini amalga oshirmasdan turib iqtisodiyotni barqaror o'stirish, asosiy kapitalni yangilanishiga va butun investitsion-moliyaviy sohada tarkibiy o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi shuning uchun davlat tomonidan ushbu islohotlar tartibga solib turiladi. Mamlakatni rivojlanish va iqtisodiy holatini yaxshilashda xorijiy investitsiyalarning o'rni muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadqiq etish imkoniyatlari doirasidagi qator tadqiqot izlanishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan C.Liyesbeth, M.Miyet, S.Jo ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikricha, o'tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizmini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalariga texnologiyalar va bilimlarni jalb qilinishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi[2].

P.Mihayela, A.Vaqar, X.Helian tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o'zgarishlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi[3].

M.V.Charayeva ilmiy tadqiqotlarida tashkilotlarning real sarmoyalarini moliyaviy boshqarish jarayonlarining kontseptual asoslari o'rganilgan. Innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida real sarmoyalarni strategik moliyaviy boshqarish xususiyatlari bayon etilgan[4].

N.G'.Karimov xorijiy investitsion korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma'muriy shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda



barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, dasturini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etiladi[5].

D.G'ozibekov, E.Nosirov ilmiy izlanishlarida investitsion salohiyatni oshirishda soliq yukini kamaytirish, fond bozorlari o'rnini keskin oshi-rish, xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish tadbirlari samarali amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etiladi[6].

D.Sh.Bababekova, B.O.Tursunov tadqiqotlarida faol investitsion jarayonlarni raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni, faol investitsiyalar orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shallantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslanadi[7].

R.H.Bozorov ilmiy izlanishlarida investitsiya muhitining omillari, xususiyatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning xalqaro indekslarda ishtirokiga bevosita bog'liqligi tadqiq qilingan[8].

Investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadbiriq etish imkoniyatlari asoslashga yo'naltirilgan yuqoridagi tadqiqotlarda makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish orqali investitsiya jarayonlari va iqtisodiy o'sishning faol sur'atlarini ta'minlash imkoniyatlari o'rganilgan. Investitsiyalari hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida xususiy mulkning yuqori mavqe, raqobat muhitining mavjudligi, to'lovga qobiliyatli iste'mol bozorining o'rni bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadbiriq etish imkoniyatlari mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, statistik ma'lumotlarni va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ko'plab yillar davomida investitsion faoliyat bo'yicha tajribalarni yig'ib borgan. Iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb qilishning faol siyosatini olib bordi. Ularni boshqarishning taktika va strategiyalarini o'zgartirib ko'rdi. Biz ushbu maqolamizda investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishning xorij tajribasini ko'rib chiqamiz.



Ya'ni unga ko'ra dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri bo'lgan AQShning investitsion siyosati, investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish, tartibga solish va nazoratni yo'lga qo'yish yo'llari haqida to'xtalib o'tamiz.

AQSh – iqtisodiyoti juda rivojlangan va qonunchilik tizimi baquvvat mamlakat hisoblanadi. AQShning investitsion iqlimi yetarli darajada yorqin va jozibalidir. Hozirgi kunda bu mamlakat chet el investitsiyalarini jalb qilish hajmi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Ya'ni dunyo miqyosida taxminan 20 % ni tashkil etadi. Bunday ajoyib natijalarga erishishda AQSh hukumati iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil sifatida chet el investitsiyalarini mamlakatning alohida shtatlarlarga kerakli vakolatlarni ajratib bergan. Ya'ni unga ko'ra mamlakatdagi hududiy boshqaruv organlariga investitsiyalar oqimini oshirishda rag'batlantirish uchun umumiy mamlakatning boshqaruv organiga nisbatan kam bo'lmagan vakolatlar beriladi.

Amerika hukumati shuni yaxshi tushunib turibdiki, ya'ni chet el kapitalining AQSh iqtisodiyotiga kiritilishi faqatgina sanoat, savdo va inflyatsion jarayonga emas, balki butun mamlakatning milliy xavfsizligiga ham yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. Natijada:

➤ shtatlar va mahalliy boshqaruv organlariga o'z hududining iqtisodiy rivojlanishi uchun mustaqillik taqdim etilgan bo'lib, xususiy biznes hamda xizmat va tovarlarning eksporti qo'llab-quvvatlashi kerak;

➤ chet el tadbirkorlik kapitalini jalb qilish va mos ravishda chet ellik investorni ham nazorat qilish;

➤ xususiy xo'jalikning o'sishini rag'batlantirish;

➤ fiskal siyosatda motivatsiyalovchi aksiyalarni olib borishi lozim.

Oxirgi natija shuni ko'rsatadiki, ya'ni ushbu omillar hozirda mamlakat shtatlaridagi o'zaro raqobatni keltirib chiqarib mamlakatdagi investitsiyalar to'g'risidagi qonunning rivojlanishiga o'ziga xos impuls vazifasini bajarib berdi. Shu asnoda AQSh iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda quyidagi qator muhim o'ziga xos xususiyatlarni ajratib o'tishimiz mumkin:

➤ hududiy va mamlakatning olib borgan siyosati natijasida iqtisodiyotga investitsiyalarning yuqori oqimi ta'minlanmoqda;

➤ kapital eksporti va importini rag'batlantirishning teng darajadaliigi, buning natijasida mamlakat netto-importer maqomiga ega bo'lgan;

➤ chet el investitsiyalarining yuqori darajada nazorat qilishni suiste'mol qilish (korrupsiya, qonunchilik meyorlari va moliyaviy-kredit kelishuvlarining




buzilishi)ga yo`l qo`yilmasligi;

- boshqa qatnashchilar uchun bozorning ochiqqligi;
- investitsion qonunchilik va soliq tizimining rivojlanganligi;
- investitsion faoliyatni ikki darajali tartibga solish tizimining mavjudligi.

Shuni ta'kidlash kerakki, AQShda investitsiyalarni boshqarishda iqtisodiy erkinlik tamoyillariga asoslanadi va iqtisodiy jarayonga jiddiy aralashmaydi, chunki bu yo`l ko`yib bo`lmas chegarani keltirib chiqaradi. Bunday maqsad esa AQShdagi tashqi iqtisodiy faoliyat institutlarining asosiy ishi bo`lib, mamlakat va uning hududlaridagi maksimal eksport potensialini kengaytirish, xalqaro iqtisodiy faoliyatda iloji boricha ko`proq qatnashchilarni jalb qilish uchun xukumat tomonidan ishlar olib borilmoqda.

AQSh iqtisodiyoti 2030 - yilda eng yirik bo`lib saqlanib qoladi, lekin uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2021 - yildagi 23%dan 20%ga tushdi. Ushbu makroiqtisodiy ma'lumotlar yalpi ichki mahsulot hajmi bo`yicha 2030 - yilgacha dunyo iqtisodiyotidagi 20 eng yirigini, AQSh qishloq xo`jaligi vazirligi tomonidan hisoblab chiqilib tashkil etilgan.



1-rasm. 2030 - yilda dunyoning eng yirik iqtisodiyotiga ega bo'ladigan davlatlar,(trln.doll.)[9]

Prognoz ko`rsatkichlariga asosan AQSh liderlikni saqlab qoladi va mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 2030 - yilga kelib 24,8 trln. dollarni tashkil qiladi. Ikkinchi o`rinni Xitoy egallaydi, uning yalpi ichki mahsuloti hajmi 22,2 trln. dollardan iborat bo`ladi. Kuchli uchlikka esa Hindiston 6,6 trln. dollar yalpi ichki mahsulot bilan kiradi. Xalqaro Valyuta Fondining shuni qayd etadiki so`nggi 10 yilda Hindiston jahonda ishlab chiqarish kuchi bo`yicha eng baquvvat mamlakatga aylanadi.



Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda yana bir dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri bu Xitoy hisoblanadi. Ularning investitsiyalarni boshqarishda olib borayotgan siyosati taxsinga sazovordir. Chunki Xitoy hozirgi kunda investitsiyalarni jalb qilishda jahonda birinchi o`ringa ko`tarilib, bir necha asrdan beri o`z o`rnini hech kimga bermay kelayotgan AQShni keyingi o`ringa tushirib qo`ydi. Uning asosiy yo`nalishlaridan biri bo`lib, milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag`batlantirish siyosatini olib borilgan va hozirda ham olib bormoqda. Xitoy imkoniyatlariga ko`ra dunyoda yetakchi hisoblanib, bunga ulardagi olib boriladigan tadqiqotlar bo`yicha ishlarning xalqarolashtirilganligi va transmilliy korporatsiyalarning o`zlashtirilishini asosiy omil sifatida ko`rsatishimiz mumkin. Hozirda mamlakatda chet el mablag`lari hisobiga yaratilgan 1000 dan ortiq ilmiy-tadqiqot tashkilotlari ish yuritmoqda. Amaliyot shuni ko`rsatmoqdaki, ilmiy yondashuvni va kapitalni ko`p talab qiluvchi sohalar tezkorlik bilan chet el kapitalini kiritish uchun muhim yo`nalishga aylanmoqda.

Tarixda birinchi marta investitsiyalarning oqimi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda ko`proq bo`ldi. U 700 mlrd. dollarni yoki 2020 - yilga nisbatan o`shish 4% ni tashkil qildi va 2021 - yil yakuniga ko`ra aynan ushbu guruhdagi mamlakatlarga butun dunyoning 56% investitsiyalari yo`naltirildi. Ushbu ko`rsatkichlarga erishishda chet el investitsiyalarini jalb qilish va ularni boshqarishda samarali faoliyatni shakllantirish va mamlakatning investitsion iqlimini takomillashtirish asosiy omil sifatida namoyon bo`ladi.

Investorlarga milliy xavfsizlikka taalluqli, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi, atrof-muhitni ifloslovchi loyihalarga investitsiya kiritish qa`tiyan man etiladi. Ko`pchilik investorlar uchun Xitoy bozori yetarlicha sig`imli bo`lib, o`shish imkoniyatlari juda ko`p. Shuning uchun ko`pchilik bu bozorga mablag` kiritmoqda va ushbu bozorda o`z o`rnini egallashga va daromad olishga urinmoqda. AQSh-Xitoy savdo komissiyasi olib borgan tadqiqotlarning natijalariga ko`ra Xitoyga investitsiya kiritgan 88 % chet el investorlari va tashkilotlar foyda bilan ishlamoqda. Ularning 81 % butun dunyodagi aynan shu yo`nalishda daromad olish bo`yicha koeffitsentdan yuqori, chet elda xususiy biznesni rivojlantirish bo`yicha 85 % so`rovchilar Xitoyni birinchi o`ringa qo`ymoqda.

Xitoy iqtisodiyoti birinchi marta AQShga nisbatan investitsiyalar hajmi bo`yicha yuqoriroq natijani qayd etdi. So`nggi 30 - yil ichida AQSh liderlik pozitsiyasini egallab kelar edi. 2020 - yil yakuniga ko`ra rivojlangan



mamlakatlarda investitsiyalar hajmi 14 %ga qisqardi. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 2020 - yilda Xitoy asosiy bosh figuraga aylandi, 2015 - yildan beri birinchi marta investitsiya jalb qilish bo'yicha AQShni birinchi o'rindan siqib chiqardi. Butun dunyoning 10 % investitsiyalari Xitoyga to'g'ri kelib, 128 mlrd. doll.ni tashkil qildi. Gongkongga 111 mlrd. doll., AQSh esa 86 mlrd. doll. bilan bor yo'g'i 3-o'rinni egalladi. Xitoyda chet el investitsiyalari ishtirokidagi tashkilotlar ko'paymoqda. 2021 - yil yakuniga kelib o'tgan yilga nisbatan Xitoyda investitsiya ulushi 4,4 %ga o'sib 23,8 mlrd dollarni tashkil etdi. Xitoyning investitsiyalarni jalb qilish va boshqarishdagi eng asosiy rag'batlantirish omili sifatida chet ellik investorlarga davlat korxonalarini xususiylashtirish huquqini berishini ko'rsatishimiz mumkin.

2021 - yilning yakuniga ko'ra Xitoyning yalpi ichki mahsuloti 6,9 %ga sekinlashdi, bu esa so'nggi 25 yil uchun eng yomon ko'rsatkichni qayd etdi. 2016 - yilda Xitoy xukumati o'sish ko'rsatkichini 6,5 % dan 7%gacha intervalda bo'lishini o'rnatdi. Absolyut ko'rinishda 2015 yilda 67,67 trillion yuan yoki 10,3 trillion dollarni tashkil qilgan. Hozir iqtisodiyotda bu xomashyoning 60 turidan foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston Xitoy munosabatlarining yangi bosqichi bo'lib mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni yaratish va rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki,


Xitoyda bu borada ulkan tajriba mavjud. Zero, Xitoy iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish uchun asosan maxsus iqtisodiy hududlardan foydalmoqda. O'zbekiston mustaqilligining 20 yilligini nishonlash arafasida "Navoiy" erkin industrial – iqtisodiy zonasida umumiy qiymati 14 million AQSh dollaridan iborat bo'lgan beshta yangi korxonalar ochilib ishga tushirildi.

Ularning barchasi zamonaviy, yuqori texnologik uskunalardan foydalanilgan hamda ichki bozorda xaridorgir va jahon bozorida bimalol raqobatlasha oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Xorijiy investorlar qatoriga Xitoy Xalq Respublikasi bilan birgalikda Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarning kompaniyalari o'zining qiziqishlarini bildirgan. Ular O'zbekiston bilan hamkorlikni yanada kengaytirishga intilmoqdalar.

O'zbekiston hukumati uchinchi erkin industrial zonani Xitoy bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida tashkil etish rejalashtirilib, uni amaliyoga muvaffaqiyatli tarzda joriy qilindi. O'zbekiston hukumati 2020 - yilda respublikani ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2021-2022 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida



qaror va qonunlarning qabul qilinishi ham mamlakatga xorijiy investirlarni jalb qilishning asosiy omili sifatida qaralmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan hujjatda manfaatdor vazirlik va idoralarga, shu bilan bir qatorda, bir qancha viloyatlar hokimliklariga 2022 - yilning I choragida, Xitoy Xalq Respublikasining vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlikni mustaxkamlovchi ta'lim hujjatlari bo'yicha kelishuvni tugallash to'g'risida ko'rsatma berilgan. Maxsus zona Jizzax viloyati va u bilan chegaradosh hududlarning resurs bazasidan oqilona foydalanish va samarali boshqarish maqsadida tashkil etildi.



9-rasm. 2021 - yil yakuniga ko'ra mamlakatlarning investitsion jozibadorligi reytingi[10]

2021 yil yakuniga ko'ra jahon mamlakatlari orasida investitsion jozibadorlik bo'yicha AQSh birinchi o'rinni saqlab qoldi. Xitoy esa ikkinchi o'rinni qayd etdi. Shuni ta'kidlash lozimki, jadvalga asosan so'nggi yillarda Kanada iqtisodiyotining investitsion jozibadorligi sezilarli ravishda oshgan. Buyuk Britaniya mamlakati esa 2019 va 2020 yillarga nisbatan 2021 - yilda ancha yuqorilab 4-o'rinni egallab turibdi. Ushbu reytingga oldinlari kuchli 25 talik davlatlar qatoriga kirmagan Shvetsiyaning kirishi kutilmagan hol bo'ldi.

Ular bu reytingga kiribgina qolmay unda o'n oltinchi o'rinda borishmoqda. Reytingda Braziliya o'zining pozitsiyalarini qisman yo'qotib uchinchi o'rinda beshinchi o'ringa tushib qolgan. Italiya, Belgiya va Daniyaning ushbu reytingga kirishi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi sezilarli isloxlarning olib borilayotganidan dalolat berib turibdi. 2021 - yilning yakuniga ko'ra internet tarmoqlarida mamlakatlarning so'nggi uch yillikdagi to'g'ridan-to'g'ri chet el investorlarining ishonish indeksi ishlab chiqildi. Quyida ushbu jadvalning to'liq shaklini ko'rishingiz mumkin.



1-jadval

2021 yilning yakuniga ko`ra to`g`ridan-to`g`ri chet el investorlarining ishonish indeksi.[11].

Mamlakatlar	2021 yil	2020 yil	2021 yil
AQSH	1	1	1
Xitoy	2	2	2
Buyuk Britaniya	3	4	8
Kanada	4	3	4
Germaniya	5	6	7
Braziliya	6	5	3
Yaponiya	7	19	13
Fransiya	8	10	12
Meksika	9	12	9
Avstraliya	10	8	6

1-Jadvalga ko`ra birinchilikni AQSh o`ziniki qilib olgan bo`lsa, keyingi o`rinlarda Xitoy va Buyuk Britaniya bormoqda. Kuchli o`nlikka Avstraliya yakun yasagan. Quyida siz ushbu jadvalni ko`rishingiz mumkin Xorij tajribasi asosida shuni aytish mumkinmi, mamlakatimizning energetika sohasiga ushbu hisob kitoblarni qo`llash orqali va ularni amaliyotga joriy qilish natijasida samaradorlikni oshirish imkoniyati yaratiladi. Hisob kitoblar quyida keltirib o`tilgan va amaliyotga joriy qilish ustida ishlanmoqda.

Shu bilan bir qatorda amaliyotga endigina kirib kelayotgan usullar bo`lgan, forfeyting va seleng usullari haqida atroflicha nazariy ma`lumotlar berib o`tilgan. Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning huquqiy asoslari keltirilgan. Ushbu rejada mamlakatimiz hududida amal qilayotgan va investitsion faoliyatni tartibga solayotgan va boshqarish uchun ko`maklashayotgan turli xil me`yoriy-huquqiy hujjatlar tavsifi ko`rsatib o`tilgan. Bundan tashqari mamlakatimizga investitsiyalarni kirituvchi asosiy shaxslar ya`ni investorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va investitsion faoliyatning ishtirokchilari zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar ham batafsil yoritib berilgan. Ushbu rejani yoritishda juda keng ko`lamdagi ma`lumotlarni O`zbekiston Respublikasining Investitsiya faoliyati to`g`risidagi Qonunil orqali amalga oshirildi. Lekin shuni ta`kidlash lozimki, mamlakatimizni iqtisodiy rivojdantirish va modernizatsiyalash davrida,



respublikamizdagi mavjud qonunlarni yanada takomillashtirish va mavjud qonuniy mexanizmlarning faoliyatini qisman erkinlashtirish lozim. Bu orqali investor va tabirkorlarga oddiy mexanizmlarni joriy qilish orqali me'yoriy bazani yengillashuviga va oson tushunishliligiga olib kelgan holda yangi investitsion mablag`larni jalb qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o`rnida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda o`tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmuni ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini muvaffaqiyatli joriy etish hisoblanadi. Mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar ijtimoiy yo`naltirilgan bozor munosabatlarini keng qo`llashga imkon beradigan ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda aniq ijtimoiy-huquqiy asoslar yaratadi. O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo`llarining aniq va to`g`ri ko`rsatib berilganligi bosh maqsad yo`lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo`lishiga imkon yaratdi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tub o`zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o`rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo`lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Investitsiya loyihalarini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Ya`ni maishiy muhtojliklarning katta bo`limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarish kengayadi, yangi mehnat kuchlari shakllanadi, eski va og`ir mehnat turmushidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o`tiladi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugungi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining hozirgi bosqichida investitsiya siyosati iqtisodiyotdagi barqarorlik, tarkibiy va sifat o`zgarishlarini belgilovchi muhim omil bo`lmoqda. Doimiy olib borilayotgan investitsiya siyosati yurtimizda xorijiy va mahalliy investorlar uchun har tomonlama qulay investitsiya muhitini yaratish imkonini yaratmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, bosib o`tgan yo`li, iqtisodiy



rivojlanishni ta'minlash yo`lida mamlakatning investitsion muxitini sog`lomashtirish borasida qabul qilgan qonunlari, ishlab chiqqan qarorlarini o`rganish, investitsiyalari kengrok, jalb etish bo`yicha ishlab chiqqan usul va uslublarning kerakli jixatlarini O`zbekiston sharoitiga tatbiq, etish muxim masalalardan xisoblanadi. Zero, to`plangan tajribalarni mamlakatning o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda tatbiq, etilishi, tavakkalchilikni pasaytirishga, mavxumlikning oldi olinishiga, yuqori samaradorlikning ta'min etilishiga olib keladi.

Chunki tayyor tajribalar vaqt sinovidan o`tgan bo`ladi. Eng asosiysi, yillar davomida qo`llanilib kelinayotgan usullar takomillashib boradi. Shuning uchun xam ilg`or tajribalardan foydalanish muvaffaqiyatning asosi bo`lib xizmat qiladi. Muloxazalarni chuqurlashtirgan xolda, ta'kidlash o`rinliki, O`zbekiston uchun xam investitsiya soxasini liberallashtirish, uning jozibadorligini oshirish bo`yicha isloxlarni davom ettirish, Respublikada erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish bo`yicha xuquqiy bazani yanada takomillashtirish yuzasidan xorijiy tajribalardan unumli foydalanish taraqqiyotning garovi xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O`zbekiston axborot agentiligi rasmiy sayti_www.O`zA
2. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 <https://www.researchgate.net/publication/237244956>
3. Mihaela Peres, Waqar Ameer & Helian Xu (2018) The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: evidence for developed and developing countries, Economic Research-Ekonomiska Istraživanja, 31:1, 626-644, DOI: 10.1080/1331677X.2018.1438906 <https://doi.org/10.1080/1331677X.2018.1438906>
4. Чараева М.В. Финансовое управление реальными инвестициями организаций: учебное пособие / М.В. Чараева. Москва: Альфа-М, 2014. 240 с.
5. Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. –T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
6. G'ozibekov D, Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: "Iqtisod-Moliya". 2007, -B.92



7. Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari. Ilmiy-ommabop risola.-T.: "Iqtisod-Moliya" 2019., 40 b
8. Bozorov R.H. O'zbekistonning global indekslarda ishtirokini keng ta'minlash – investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim omili. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018 yil
9. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсibilизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. <https://stat.uz/uz/>
11. Turaev, J., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2022). ORGANIZATION OF PRE-SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN TWO DIFFERENT COUNTRIES: RUSSIAN FEDERATION AND JAPAN. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(24), 86-93.
12. M.S.Qosimov, G.Y. Muhamedjanova. Investitsiya loyihalari tahlili O'quv qo'llanma -T., TDIU
13. M.S.Qosimov, G.Y. Muhamedjanova. Investitsiya loyihalari tahlili O'quv qo'llanma -T., TDIU